YOSHLAR O'RTASIDA O'Z JONIGA QASD QILISH SUISID HOLATLARINING KELIB CHIQISH SABABLARI.

Qashqadaryo viloyati Shahrisabz tumani 81-maktab psixologi Kadirova Sevara Sherboboyevna

Inson hayoti-eng oliy qadryat.Biroq turli ijtimoiy,iqtisodiy va psixologik muammolar ta'sirida ayrim shaxslar o'z hayotiga qasd qilish-suisid yo'lini tanlaydilar.Suisid muammosi nafaqat shaxsiy,balki ijtimoiy illat hamdir.Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti(JSST) ma'lumotlariga ko'ra,har yili dunyoda bir miliondan ortiq odam o'z joniga qasd qiladi.Suisid odamlar orasida ijtimoiy munosabatlarda inson o'zi yecha olmagan muammolar borligidan,shaxsiy musibat,umidsizlik va tushkunlik bilan bog'liq tashvish mavjudligidan darak beradi.Voyaga yetmaganlar orasida suisid katta yoshdagi insonlarga qaraganda o'ziga xos va murakkab sabablarga ega bo'lishi mumkin.O'smirlarda o'z joniga qasd qilishning sabablari ko'pincha ruhiy emotsional va ijtimoiy omillar bilan bog'liq bo'lib,ular bir nechta faktorlarning ta'sirida yuzaga kelishi mumkin.

Bugungi murakkab globallashuv davrida ma'naviyat sohasida vujudga kelayotgan dolzarb muammolarni hal etish,xalqimiz ma'naviyatini asrash,yuksaltirish,ayniqsa,yosh avlodning qalbi va ongini turli zararli g'oya va mafkuralar ta'siridan saqlash,shuningdek,uni himoya qilish masalalari alohida e'tiborga molikdir.Yoshlarning ma'naviy olamida bo'shliq vujudga kelmasligi ucun ularning qalbi hamda ongiga so'lom turmush tarzi,milliy va umummilliy qadryatlarga hurmat-ehtirom tuyg'usini bolalaik davridanoq shakllantirish muhim vazifa.Voyaga yetmagan o'smirlarning shaxs sifatida shakllanish jarayoni muammoli vaziyatlarda ularning maqbul qarorlar qabul qilishlariga to'sqinlik qiladi.Shuning uchun ular tez-tez jinoyatchilik va o'z joniga qasd qilish mazmuniga ega bo'lgan harakatlarning ta'siriga tushib qoladi.Voyaga yetmaganlarga asta-sekin ijtimoiy muhit talab va me'yorlariga

nisbatan deformatsiyalashuv (ortiqcha keraksiz yoki zaiflashgan holatlar)ning kelib chiqishi yuz beradi.Oqibatda salbiy xulq atvor o'smirning butun faoliyatini,ongini qamrab oladi.Natijada bunday vaziyatlarda shaxs o'zining yosh davri xususiyati va hayotiy tajribasizligi tufayli g'ayriqonuniy harakatlarga qo'l urishi mumkin.

Suisidni keltirib chiqaruvchi asosiy omillar

Insonlar o'rtasida sodir etiladigan suisid holatlarining sabablari tahlili shuni ko'rsatmoqdaki,aksaryat hollarda oiladagi nizolar va nosog'lom muhit shu bilan birga bir qancha salbiy xolatlarning ta'siri nihoyatda katta.Bunday vaziyatlarda aynan bitta narsani yoki xodisani o'zini sabab qilib ko'rsatish juda qiyin,chunki bu jarayonlar uzoq muddatli va hatto yillar davomida shakllanib kelgan bo'lishi mumkin.Insonda o'zi suisidni amalga oshrish tusatdan yuz bermaydi.Suisidga moyil inson atrofdagilarni o'z niyatidan ancha ochiq ogohlantiradi va tegishli choralarni ko'rish ucun ko'p imkoniyat qoldiradi.

Suisidga olib keluvchi ko'plab omillarni misol qilib keltirishimiz mumkin.

Birinchi omil. Oiladagi kelishmovchiliklar,oiladagi taz'yiq,oiladagi nosog'lom muhitdir.62% amalga oshirilayotgan suisid holatlari bevosita oila muammolari bilan bog'liq.

Ikkinchi omil.Tengdoshlar bilan bo'lgan muammolar.Asosan qarama-qarshi jins vakillari bilan bo'lgan shaxslararo munosabatlardagi kelishmovchiliklar aks etmoqda.Tengdoshlar o'rtasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tushunmovchilik esa suisidga zamin yaratadi.

Suitsidal holatlarda emotsional buzulishlar quyidagi ko'rinishda namoyon bo'ladi.

-Ishtaxaning yo'qolishi yoki ochko'zlik.Oxirgi kunlaridagi uyqusizlik yoki ko'p uxlash holatlari.

-Somatik holatdan tez tez arz qilish.Qorin og'rishi,bosh og'rishi,doimiy charchashdan tez-tez shikoyat qilish.

-O’z tashqi ko’rinishiga nisbatan odatiy bo’lmagan befarqlik.

-Doimiy yolg’izlik,kerak emaslik,aybdorlik va g’am hissi.

-Avval rohat bag’ishlagan ishdan va yaqilaridan zerikish.

-Aloqalardan qochish,do’stlardan va yaqinlardan yakkalanish.

-Diqqatning buzuzlishi va ish sifatining pasayishi.

-O’lim haqidagi fikrlarga berilish.

-Kelajak rejalarining yo’qligi.

-Arzimagan narsalar uchun g’azablanish.

Voyaga yetmaganlar orasida suitsidni keltirib chiqaruvchi asosiy omillar.

*Psixologik.omil-depressiya,tashvish,stress,o’z-o’ziga bo’lgan hurmat va qadrlashning pastligi,shaxslararo nizolar va turli ruhiy travmalar suitsidga olib kelishi mumkin

*Ijtimoiy iqtisodiy omil-moddiy qiyinchiliklar,raqobat va ijtimoiy tengsizlik,kelajak haqida ishonchsizlik.

*Oilaviy va tarbiyaviy omillar-ota-onaning befarqligi,oilaviy zo’ravonlik,mehr yetishmasligi,notinch oilaviy muhit.

*Madaniy va diniy omil,diniy taqiqlar,OAV da suitsidni romantiklashtirish kabi omillar ham ta’sir ko’rsatadi.

Zamonaviy jamiyatda ommaviy axborat katta ahamiyat va ta’sirga ega ekanligini inkor eta olmaymiz.Ular insonlarning xulq-atvori,hatti harakatlari va ular orasidagi munosabatlarga katta ta’sir ko’rsatmoqda.O’z joniga qasd qilish holatlarining ommaviy axbotot vositalarida keng yoritilishi,aks ta’sir ko’rsatmoqda.O’z o’zini o’ldirish holatlarini o’sishiga olib kelmoqda.Bu holat „Verter effekti’’deb nomlanadi.Bu tushuncha Gyotening „Yosh Verterning iztiroblari’’asari qahramoni Verter nomidan kelib chiqqan.Bu asar nashr etilgach (1774) ommaviy o’z joniga qasd qilish holatlariga sababchi bo’ldi.Hozirda ayrim OAV vositalari esa pashshadan fil yasab,shov – shuv ko’tarishga urinishmoqda.Ayrim kino va seriallarda o’lim

holatlarini o’z joniga qasd qilish holatlarini juda chiroyli va ,,mardonavor’’tarzda nomoyish etishadi,yoshlar esa faqat ana shu ,,qahramonlik’’ ni o’zlariga ,,ibrat’’ qilib olishadi va buning sabab oqibatlari bilan unchalik ham qiziqishmaydi.Ularda o’z joniga qasd qilish muammolarining yagona yechimi degan noto’g’ri tasavvurlar o’yg’onishiga sababchi bo’ladi.Bunday og’ir voqeaning bittasi ham butun jamiyatni qalqitishi kerak,uning oldini olish shu jamiyatdagi har bir fuqoroning vijdon amriga aylanmog’i shart.Ushbu og’riqli muammoni ommaviy axborot vositalari yoritmasin,dimoqchi emasmiz.Ammo o’z joniga qasd qilish holatlarini yoritishda quyidagi ayrim jixatlarga e’tibor qilinsa nur ustiga a’lo nur bo’lar edi.O’z joniga qasd qilish usul va vositalarini ,sabablarini yoritmaslik lozim.Afsuski amalda buning aksini ko’rayapmiz.

Suisidga moyil yoshlar odatda to’g’ridan-to’g’ri yordam izlashmaydi:shunga qaramay ularning ota-onalari,maktab ma’muriyati yoki tengdoshlari ogohlantiruvchi alomatlarni aniqlahi va bolani saqlab qolish uchun qandaydir choralarni ko’rishi mumkin.

Oila yoshlarning tarbiyasida birinchi o’rinda turadi.Milliy psixologik qadryatlar ayniqsa oilada shakllanadi.Ota-onalar o’z farzandlariga milliy an’analarga,urf odatlarga,axloqiy qadryat va hurmatga asoslangan tarbiya berishlari zarur.Shuningdek,ota-onalarni tarbiyaviy ma’lumotlar bilan ta’minlash,oilaviy tarbiya bo’yicha smenarlar va treninglar tashkil etish muhimdir.Yoshlarning psixologik va axloqiy rivojlanishi uchun maxsus treninglar,smenarlar va psixologik qo’llanmalar ishlab chiqarilishi lozim.Bu yoshlarni ijtimoiy,axloqiy va psixologik jihatdan yanada barqaror va mustahkam shaxslar sifatida tarbiyalashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. *Yangi O‘zbekiston – inson qadrini ulug‘lash va erkin yashash jamiyati*. – T.: “O‘zbekiston”, 2021.

2. Mirziyoyev Sh.M. *Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz*. – T.: “O‘zbekiston”, 2017.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-sonli “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.
4. Abdullaeva R., Normurodova D. *Pedagogik psixologiya*. – T.: “Fan va texnologiya”, 2019.
5. Saidov A.A. *O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy asoslari*. – T.: “Adolat”, 2023.
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oquvchilarni psixologik-pedagogik qo`llab-quvvatlash ishlarini yanada takomillashtirish to`g`risida” gi 2019 yil 12-iyul № 577-qarori

Internet resurslar

1. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi: www.uzedu.uz
2. Xalq ta’limi sohasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish markazi:www.multimedia.uz